(9). Xudayberdiyev A.K. Globallashuv sharoitida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining ijtimoiy-huquqiy jihatlari. Международный научный журнал “Интернаука”, 2017, №.2 (2), с. 181–183.

(10). Худайбердиев А.К. Узбекистан: проблемы защиты молодежи от вредной информации в условиях глобализации (социально-философский анализ). “Россия и мусульманский мир”, 2019, №.3, с. 36–41.

(11). Xudayberdiyev A. Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati qat’iyat bilan davom ettirilmoqda. Eurasian Journal of Academic Research. 2022, t. 2, №.12, c. 912–918.

(12). Rasulovich T.S., Kurbankulovich K.A., Jamoliddinovna K.M., Samadovich T.K., Tulkinovich S.K. (2022), Forms and Characteristics of Virtual Spiritual Threats. Telematique, 7146–7155.

Matchanova Barno (falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi)

SHARQ VA G‘ARB FALSAFASIDA MILLIY O‘ZLIK VA UNIVERSALLIK: MODERNIZATSIYA JARAYONIDAGI ZIDDIYATLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq va G‘arb falsafasida milliylik va universalizm tushunchalarining shakllanishi hamda ularning modernizatsiya va globallashuv jarayonidagi qarama-qarshiliklari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq falsafasining axloqiy-ma’naviy qadriyatlarga, madaniy an’analarga tayanishi va G‘arb falsafasining ratsionalizm hamda umuminsoniy qonuniyatlarga asoslanganligi qiyosiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, milliy o‘zlikni saqlash va universal qadriyatlarni qabul qilish o‘rtasidagi muvozanat muammosi, uning jamiyat barqarorligi, yoshlar ongiga ta’siri va ma’naviy xavfsizlik bilan bog‘liq jihatlari ochib beriladi. Maqola modernizatsiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish zaruratini falsafiy jihatdan asoslashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sharq falsafasi, G‘arb falsafasi, milliylik, universalizm, modernizatsiya, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, milliy o‘zlik, falsafiy tafakkur, axloq.*

НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И УНИВЕРСАЛИЗМ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ: ПРОТИВОРЕЧИЯ В ПРОЦЕССЕ МОДЕРНИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется формирование понятий национальной идентичности и универсализма в восточной и западной философии, а также рассматриваются их противоречия в контексте модернизации и глобализации. В исследовании проводится сравнительный анализ восточной философии, основанной на нравственных, духовных ценностях и культурных традициях, и западной философии, акцентирующей внимание на рационализме и универсальных принципах. Особое внимание уделяется проблеме соотношения национальной идентичности и универсальных ценностей, а также их влиянию на социальную стабильность, сознание молодежи и духовную безопасность. Целью статьи является философское обоснование необходимости гармонизации национального наследия с общечеловеческими ценностями в процессе модернизации.*

Ключевые слова: *восточная философия, западная философия, национальная идентичность, универсализм, модернизация, глобализация, духовные ценности, культурная идентичность, философское мышление, этика.*

NATIONAL IDENTITY AND UNIVERSALISM IN EASTERN AND WESTERN PHILOSOPHY: CONTRADICTIONS IN THE PROCESS OF MODERNIZATION

Annotation. *This article analyzes the formation of the concepts of national identity and universalism in Eastern and Western philosophy and examines their contradictions in the context of modernization and globalization. The study provides a comparative analysis of Eastern philosophy, which is based on moral, spiritual values and cultural traditions, and Western philosophy, which emphasizes rationalism and universal principles. Special attention is paid to the problem of balancing national identity and universal values, as well as its impact on social stability, youth consciousness, and spiritual security. The article aims to philosophically justify the necessity of harmonizing national heritage with universal human values in the process of modernization.*

Keywords. *Eastern philosophy, Western philosophy, national identity, universalism, modernization, globalization, spiritual values, cultural identity, philosophical thinking, ethics.*

Kirish (Introduction). Hozirgi kunda O‘zbekiston hamda dunyoning boshqa davlatlari globallashuv jarayonlaridan o‘tayotgan bir davrda, mamlakatda turli geosiyosiy va geostrategik tendensiyalar aholining, xususan yoshlar hayoti va ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy sohalarda ham davlatning ichki va tashqi kuchlari orqali turli tahdid va xavf-xatarlarning yuzaga kelishini taqozo qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Bugun dunyoda keskin raqobat va manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Insoniyat uchun yangi im-

koniyatlar ochilgan globallashuv bilan birga kutilmagan muammolar ham kelib chiqmoqda. Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga tahdidlar tobora ortib bormoqda. Buning ichida shaxsiy manfaatni oldinga qo‘yish, mehnat va oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati kabi omillar yoshlar ongiga ta’sir qilmoqda. Shu bilan birga, davlatchilik shovinizmi, terrorizm va ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik, millatchilik kabi xavflar ortib bormoqda” [1].

Shu nuqtayi nazardan, milliylik va universalizm o‘rtasidagi qarama-qarshilik, modernizatsiya va globallashuv jarayonidagi ziddiyatlar masalasi nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham muhim masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolada Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurida milliylik va universalizmning farqlari hamda ularning modernizatsiya jarayonidagi ziddiyatlari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review). Sharq va G‘arb falsafasida milliylik va universalizm masalasi tarixan turlicha talqin qilingan. G‘arb falsafasida universalizm aql, umuminsiy axloq va huquqiy me’yorlar orqali asoslangan bo‘lsa, Sharq falsafasida milliy-madaniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot ustuvor ahamiyat kasb etadi. Antik va klassik G‘arb mutafakkirlari universal haqiqat g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, Sharq tafakkurida bu g‘oya axloqiy tarbiya va an’ana bilan uyg‘unlashgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda globallashuv va modernizatsiya jarayonida milliy identitetni saqlash va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish muammosi markaziy o‘rinni egallaydi. Tadqiqotchilar bu jarayonni ziddiyatli, ammo dialektik jihatdan muvozanat talab etuvchi hodisa sifatida baholaydilar.

Tahlil va natijalar. Sharq va G‘arb falsafasida milliylik va universalizm masalasi uzoq tarixiy davr mobaynida falsafiy tafakkurning markaziy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Mazkur masala, ayniqsa, globallashuv va modernizatsiya jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda yangi mazmun va ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu muammo turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan bo‘lib, ularning umumiy jihati milliy o‘zlikni saqlash hamda umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish masalasiga qaratilganidadir.

G‘arb falsafiy tafakkurida universalizm g‘oyasi, avvalo, antik davrdayoq shakllangan. Suqrot, Aflotun va Arastu asarlarida inson aql-idroki, mantiqiy tafakkur va umumiy axloqiy mezonlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Keyinchalik,Yangi davr G‘arb falsafasida (Dekart, Kant, Gegel) universal aql, umumiy qonuniyatlar va inson huquqlari konsepsiyasi yanada rivojlantirildi. Ayniqsa, I. Kantning axloqiy universalizmga asoslangan “kategoriya imperativi” jamiyat taraqqiyotining umumiy me’yorlarini belgilashga urinish sifatida baholanadi.

Sharq falsafasida esa milliylik, madaniy an’ana va axloqiy tarbiya masalalari ustuvor o‘rin egallaydi. Konfutsiy ta’limotida jamiyat barqarorligi shaxs axloqi, ijtimoiy tartib va an’anaviy qadriyatlarga sodiqlik bilan bog‘lanadi. Daosizmda tabiat bilan uyg‘unlik, ichki muvozanat va tabiiylik g‘oyalari ilgari suriladi. Qadimgi Hind falsafasida (Vedanta, Buddizm) esa inson kamoloti ruhiy poklanish va ichki ma’naviy yetuklik orqali amalga oshishi ta’kidlanadi. Bu qarashlarda universal haqiqat tushunchasi mavjud bo‘lsa-da, u milliy-madaniy va diniy an’analar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi.

Markaziy Osiyo falsafiy merosida ham milliylik va universalizm uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. “Avesto”dagi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal tamoyillari umuminsiy axloqiy qadriyatlar sifatida baholansa-da, ular muayyan tarixiy-madaniy makon bilan bog‘langan [Avesto]. Zardushtiylik, moniychilik va mazdakiylik ta’limotlarida adolat, tenglik va axloqiy poklik g‘oyalari nafaqat milliy, balki umuminsiy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda (A.Giddens, S.Huntington, J.Habermas) globallashuv jarayonida milliy identitet va universal qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar alohida tahlil qilinadi. Xususan, S. Huntington sivilizatsiyalar to‘qnashuvi nazariyasida madaniy va dini farqlarning kuchayishini qayd etsa, J. Habermas kommunikativ aql va umumiy ijtimoiy konsensus orqali bu ziddiyatlarni yumshatish mumkinligini asoslaydi. Bu qarashlar modernizatsiya jarayonida falsafaning integrativ rolini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo olimlarining tadqiqotlarida esa milliy ma’naviyatni asrash, yoshlar ongida vatandorlik va milliy o‘zlikni mustahkamlash bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlarga ochiqlik masalasi ilgari suriladi. Bu yondashuv milliylik va universalizmni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sharq va G‘arb falsafasida milliylik va universalizm bir-birini inkor etuvchi emas, balki dialektik jihatdan bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Modernizatsiya jarayonidagi zidddiyatlar aynan shu dialektik munosabatni to‘g‘ri anglash va falsafiy jihatdan asoslashni talab qiladi. Mazkur tadqiqot ushbu masalaga yangi ilmiy yondashuv taklif etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini falsafiy jihatdan asoslashga qaratilgan [2].

Mazkur yondashuv falsafaning markaziga inson muammosini qo‘yadi va jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlar bilan uyg‘unlashadi. Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy dunyoqarashi sermazmun va rang-barang bo‘lib, ularning milliy madaniyati, urf-odatlari, axloqiy qadriyatlari va e’tiqodida mujassamlangan. Shu bois, yangi davr falsafasida milliy meros va qadriyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Bilamizki, “Filosofiya” atamasi dastlab Pifagor tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, “donolikni sevish” degan ma’noni anglatadi. Yevropa madaniyatiga esa bu tushuncha Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Tarix davomida falsafaga turlicha yondashuvlar shakllangan, biroq u doimo inson, jamiyat va borliq haqidagi fundamental savollarni o‘rganishga qaratilgan fan bo‘lib qolgan [4]. Falsafa qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi VI asrlarda shakllangan bo‘lib, dunyo va inson mohiyatini mifologik emas, balki mantiq va tafakkur asosida tushuntirishga qaratilgan. Antik davr falsafasi Fales, Anaksimandr, Geraklit, Pifagor, Suqrot, Aflotun, Arastu kabi mutafakkirlar nomi bilan bog‘liq bo‘lib, ular inson tafakkuri taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan.

G‘arb falsafasining asoschisi an’anaviy ravishda Miletlik Fales (mil. avv. 624–546) hisoblanadi. U dunyoni miflar orqali emas, balki kuzatish va tafakkur orqali tushuntirishga harakat qilgan va borliqning ibtidosini suv deb bilgan. Uning ortidan Anaksimandr (apeiron g‘oyasi), Geraklit (doimiy o‘zgarish va qarama-qarshilik), Pifagor (matematik tartib) kabi faylasuflar yetishib chiqqan.

Qadimgi Hindistonda falsafiy tafakkur Vedalar – Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atharvaveda matnlarida o‘z ifodasini topgan. Ularda olam, inson va tabiatning mohiyati, borliqning tuzilishi va hayot mazmuni haqida chuqur mulohazalar ilgari surilgan. Hind falsafasida materialistik yo‘nalish sifatida Lokayata va Chorvak maktablari dunyoni moddiy unsurlardan tashkil topgan deb hisoblagan. Idealistik yo‘nalishlar – Vedanta, Mimansa, Sankxya, Yoga, Nyaya va Vaysheshika ta’limotlari esa ruhiy va diniy bilimlarni ustuvor deb bilgan. Buddizm falsafasi axloq, meditatsiya va donolik tamoyillariga asoslanib, insonni azob-uqubatlardan xalos etuvchi yo‘l sifatida nirvanaga erishishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

Sharq falsafasining muhim markazlaridan biri qadimgi Xitoy bo‘lib, bu hududda eramizdan ikki ming yil avval dehqonchilik, sug‘orish tizimlari, hunarmandchilik va savdo-sotiq keng rivojlangan. Natijada astronomiya, biologiya, tibbiyot, san’at va madaniyat sohalarida katta yutuqlarga erishilgan. Qadimgi xitoy falsafasida olam abadiy deb tushunilib, u besh unsur – olov, suv, yer, daraxt va metalldan tashkil topgan degan qarashlar ilgari surilgan.

Daosizm falsafiy oqimi Lao-Szi tomonidan asos solingan bo‘lib, u borliqning doimiy harakat va o‘zgarishda ekanini ta’kidlaydi. Daosizmga ko‘ra, dunyodagi barcha hodisalar qarama-qarshiliklar birligi va kurashi asosida rivojlanadi. Bu qarash In va Yan qarama-qarshi kuchlar falsafasi bilan uzviy bog‘liqdir. Konfutsiylik ta’limoti esa axloqiy-tarbiyaviy masalalarni markazga qo‘yadi. Konfutsiy jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida “Li” – tartib va marom tushunchasini ilgari surib, insonlar tabiatiga ko‘ra o‘xshash, ammo tarbiyasiga ko‘ra farqlanishini ta’kidlaydi.

Qadimgi Xitoy falsafasida materialistik va idealistik tendensiyalar birgalikda rivojlangan. Mo Di, Syun-szi, Gunsun Lun kabi faylasuflar tushuncha va real predmet o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilganlar. Konfutsiy, Men-szi, Xan Fey-szi va “qonunchilar” maktabi vakillarining qarashlari Xitoy falsafasining “oltin davri”ni tashkil etadi. Eramizning I asrida Xitoyga buddizm kirib kelib, daosizm va konfutsiychilik bilan bir qatorda yetakchi falsafiy yo‘nalishga aylangan.

Markaziy Osiyo, xususan hozirgi O‘zbekiston hududi, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan hududlardan biridir. Miloddan avvalgi V–III ming yilliklarda bu yerda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, metallga ishlov berish, to‘quvchilik va binokorlik rivojlangan. Sug‘diyona, Baqtriya va Xorazm kabi shahar-davlatlar shakllangan. Yozuvning paydo bo‘lishi falsafiy va ma’naviy tafakkur rivojiga keng yo‘l ochgan. Avesto, sug‘d, oromiy, yunon, keyinchalik, turkiy yozuvlar madaniy merosning muhim qismi bo‘lgan.

“Avesto’ zardushtiylik diniy-falsafiy ta’limotining muqaddas kitobi bo‘lib, unda olamda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash markaziy o‘rin egallaydi. Ahura Mazda va Axriman qarama-qarshiligi orqali insonning axloqiy tanlovi yoritiladi. Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal tamoyillari inson kamolotining asosi sifatida talqin etiladi.

Moniychilik va mazdakiylik ta’limotlari ham Sharq falsafasida muhim o‘rin tutadi. Moniychilik dunyoni nur va zulmatning abadiy kurashi sifatida tushuntirsa, mazdakiylik adolat, tenglik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalarini ilgari suradi. Mazdakiylik jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yovuzlik manbai deb bilib, adolatli taqsimot va mehnat orqali inson kamolotiga erishishni asoslaydi. Ushbu g‘oyalar oddiy xalq orasida keng tarqalib, ijtimoiy harakatlarning mafkuraviy asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Sharq va G‘arb falsafasi tarixiy rivojlanish jarayonida insonning dunyoqarashi, axloqi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan milliy va universal jihatlarni namoyon etadi. G‘arb falsafasi asosan ratsionalizm, ilmiy tafakkur va umuminsoniy qonuniyatlarga tayangan bo‘lsa, Sharq falsafasi axloqiy tarbiya, ma’naviyat va milliy an’analarga ustuvor ahamiyat bergan.

Milliylik va universalizm o‘rtasidagi qarama-qarshilik modernizatsiya jarayonida, ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, global bilimlar va texnologiyalar milliy an’analar bilan uyg‘unlashishi zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu jarayon milliy o‘zlikni saqlab qolish bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois zamonaviy taraqqiyot sharoitida falsafa milliy meros va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlovchi muhim nazariy va amaliy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023, 5–6-betlar.
(2). Abdullayev R. Sharq falsafasi va milliy qadriyatlar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 45–48-betlar.
(3). Karimov A. O‘zbek falsafiy merosi, Samarqand, 2019, 12–16-betlar.
(4). Diogen Layertskiy. Yunon falsafasi tarixi. “Athena”, 200, 55–57-betlar.
(5). Ergashev D. Falsafa nazariyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020, 23–27-varaqlar
(6). Forobiy A.N. (1993). Fozil shahar aholisi haqida. Toshkent, “Fan”.
(7). Ibn Sino. A. (1996). Tib qonunlari. Toshkent, “Fan”.

Raupova Ra’no Soyibovna (Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi)

IBN SINO TASAVVUF FALSAFASIDA “AQL” TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ibn Sino tasavvuf falsafasida aql (al-ʿaql) tushunchasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mutafakkir qarashlarida aql inson bilimining markaziy omili bo‘lib, u tashqi va ichki sezgilardan olinadigan ma’lumotlarni qayta ishlash, umumiy tushunchalar hosil qilish va mavjudotlar mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Maqolada aqlning bosqichma-bosqich bilish jarayonidagi roli, faol aql konsepsiyasi hamda aqlning ilmiy va ma’naviy kamolot bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *aql, mantiqiy fikrlash, haqiqat, sezgi, faol aql, ratsional vosita, kamolot, “Al-Isharat wa al-Tanbihat” asari.*

Раупова Рано Сойибовна (научный сотрудник Бухарского государственного университета)

ПОНЯТИЕ “РАЗУМА” В СУФИЙСКОЙ ФИЛОСОФИИ ИБН СИНЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение понятия разума (аль-акль) в философии суфизма Ибн Сины. По мнению мыслителя, разум является центральным фактором человеческого познания, служащим для обработки информации, получаемой от внешних и внутренних ощущений, формирования общих понятий и понимания сущности бытия. В статье подчеркивается роль разума в постепенном процессе познания, концепция активного разума и неразрывная связь разума с научным и духовным совершенством.*

Ключевые слова: *разум, логическое мышление, истина, интуиция, активный ум, рациональные средства, совершенство, «Аль-Ишарат ва аль-Танбихат».*

Raupova Rano Soyibovna (Researcher at Bukhara State University)

THE CONCEPT OF “INTELLECT” IN IBN SINA’S SUFI PHILOSOPHY

Annotation. *This article analyzes the role and significance of the concept of mind (al-ʿaql) in the philosophy of Sufism of Ibn Sina. In the views of the thinker, mind is the central factor of human knowledge, which serves to process information received from external and internal sensations, form general concepts, and understand the essence of beings. The article highlights the role of mind in the gradual process of cognition, the concept of active mind, and the inextricable connection of mind with scientific and spiritual perfection.*

Keywords: *mind, logical thinking, truth, intuition, active mind, rational means, perfection, “Al-Isharat wa al-Tanbihat”.*

Kirish. Islom falsafasi va tasavvufiy tafakkur tarixida Ibn Sino aql va ruh munosabatini chuqur tahlil qilgan buyuk mutafakkir sifatida alohida o‘rin egallaydi. Uning falsafiy tizimida aql (al-ʿaql) inson bilimi va ruhiy yuksalishining markazida turadi. Ibn Sino aqlni faqat mantiqiy fikrlash quroli sifatida emas, balki insonni mavjudotlar mohiyatini anglash va ilohiy haqiqatga yaqinlashishga yo‘naltiruvchi kuch sifatida tushuntiradi. Ibn Sino qarashlariga ko‘ra, bilish jarayoni sezgidan boshlanib, aql orqali umumlashtirish va mohiyatga yetish bosqichlaridan o‘tadi. Bu jarayon tasavvufiy ma’rifat yo‘li bilan hamohang bo‘lib, unda